

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ



11.00.02-IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA IXTISOSLIGI  
BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA  
KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS IXTISOSLIK FANLARIDAN

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

Samarqand-2022 y.

## **ANNOTATSIYA:**

Dastur 11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligiga kiruvchilar uchun 5A140602 -Geografiya (o'rGANISH ob'ekti bo'yicha) mutaxassisligining 2019 yilda tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

## **TUZUVCHILAR:**

Usmanov M.R.



SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi mudiri, geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Ravshanov A.X.



SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxamedov O.L.



SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

Dastur Geografiya va ekologiya fakultetining 2022 yil 29 sentabrdagi №2 sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

### **KIRISH**

11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi– Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yildan-yilga keskinlashib borishi insonning tabiat qonuniyatlarini chuqr bilishni, shuningdek, tabiatdan hamda uning resurslaridan tejab-tergab, oqilona foydalanish, antropogen landshaftlarning xo‘jalik nuqtai nazaridan buzilishi va oqibatlari, geoekologik muammolar, inson salomatligi, nozogeografik vaziyat, global salomatlik, nozogeografik vaziyat, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar, mintaqalar xo‘jalikni hududiy tashkil etish, aholi va demografik muammolarni tadqiq etish, aholiga xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, mintaqalar rekreatsiya va turistik resurslardan kompleks foydalanish bugungi geografiyaning asosiy tadqiqot ob’ektiga aylanmoqda. SHuningdek, geografik tadqiqotlar hududlar barqaror rivojlanishini, inson geografiyasini, konstruktiv geografik tadqiqotlar va kartalashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarda keng o‘rganilishi geografiyaning amaliy ahamiyatini oshirmoqda. SHunga ko‘ra iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani nazarli va amaliy jihatdan chuqr ko‘nikma va malakaga mukammal ega bo‘lgan ixtisosliklar bo‘yicha ilmiy darajali kadrlar tayyorlash yuqorida qayd etilgan sohalardagi ta’lim tizimining negizi hisoblanadi.

11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligining vazifasi - ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy masalalar, xo‘jalikni hududiy tashkil etish, aholi va demografik muammolarni tadqiq etish, rekreatsiya va turistik resurslar, tibbiy va servis xizmatlarini hududiy tashkil etish, joylashtirish, rivojlantirish va muammolarni va uning echimi hamda sabablarini aniqlashdan iboratdir.

11.00.02- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura ga kiruvchi da‘vogarlar uchun 5A140602 -Geografiya (o‘rganish ob’ekti bo‘yicha) mutaxassisliklari o‘quv rejasiga asosan 3 ta ixtisoslik fanlari bo‘yicha: “Servis geografiyasi”, “Mintaqaviy rivojlanishning geografik asoslari”, “Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik” fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida bat afsil keltirilgan.

### **SERVIS GEOGRAFIYASI**

#### **fani bo‘yicha:**

Servis geografiyasingning nazarli asoslari. Fanning tadqiqot ob’ekti va predmeti. Xizmat ko‘rsatish muassasalari to‘ri va tizimlari, aholining turli xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari servis geografiyasingning tadqiqot ob’ekti ekanligi. Aholiga xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish servis geografiyasingning predmeti sifatida. Servis geografiyasingning fanlar tizimida tutgan o‘rni, maqsadi va vazifalari. Asosiy termin va tushunchalari. Servis geografiyasingning ilmiy va amaliy ahamiyati, uning yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashdagi roli. Servis, xizmat ko‘rsatish sohalari va ijtimoiy infratuzilma tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro mushtarakligi. Infratuzilmaning ikkiga ajratilishi: ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma. Aholining kundalik turmush sharoitlarini ta’minlab turuvchi xizmat ko‘rsatish muassasalari ijtimoiy infrastrukturani hosil qilishi. Muayyan hududda xizmat ko‘rsatish sohalarining joylashuvini tabiiy, iqtisodiy, demografik, aholi joylashuvi va boshqa omillarni hisobga olgan holda tavsiflash va baholash eng avvalo geograflarning vazifasi ekanligi. Servisni geografik o‘rganishning ikki muhim jihat: 1) aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari va mavjud xizmat ko‘rsatish darajasini o‘rganish; 2) xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishi va uning hududiy tizimlarini o‘rganish. Servis geografiyasi tashkil etish. Tarmoq va kompleks servis geografik tadqiqotlar. Xizmat va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko‘rsatishni bevosita muayyan odam, shaxs bilan bog‘likligi va uning ehtiyojlari qondirishga karatilganligi. Xizmatlarning turlanishi. “Toza ko‘rinishda”gi, ya’ni

“noishlab chikarish”ga mansub xizmatlar. “Narsa” ko‘rinishidagi, ya’ni ishlab chiqarishga mansub xizmatlar. Xizmatning asosiy moxiyati muayyan yakka shaxsning buyurtmasi asosida ishning bajarilishi bilan bog‘liqligi. Xizmat ko‘rsatish sohalarini iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida tutgan o‘rni. Xizmat ko‘rsatish sohalarini bajaradigan vazifalariga ko‘ra guruhlanishi. Xizmatlarni klasifikatsiyasi.Ehtiyojlar haqida tushuncha. Aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlar. Ehtiyojlarning guruhlanishi. Biologik va ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar. Iqlim, aholi tarkibi, migratsiya, aholi daromadlari, aholi joylashuvi va transport, aholiga xizmat ko‘rsatishning muayyan darajasi va b. Aholining xizmatlarga bulgan extiyojlarini aniklash usullari va normativlari (me’yorlari). Xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish xususiyatlari. Xizmatlarni iste’mol qiluvchilarni turlanishi. Xizmat ko‘rsatish darajasini o‘lchash usullari. Xizmat ko‘rsatish soxalarini rivojlanishini baxolashning iktisodiy-geografik jihatlari. Aholiga xizmat ko‘rsatish darajasini sub’ektiv, ya’ni ishtirokchi aholi tomonidan baholanishi (sotsilogik so‘rovlar) hamda xizmat ko‘rsatish darajasini tadqiqotchi tomonidan turli statistik va boshka manbalar taxlili asosida baholash. Xizmat ko‘rsatish darajasi ko‘rsatkichlari turlari. Xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishini o‘rganish geografiyaning muhim masalasi ekanligi. Xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etishning asosiy tushunchalari. Xizmat ko‘rsatish muassasalarini joylashtirish va hududiy tashkil etish tushunchasi. Muassasa, muassasalar turi, xizmat ko‘rsatish markazlari, xizmat ko‘rsatish zonası, xizmat ko‘rsatish areali, xizmat ko‘rsatishning hududiy tizimlari va x. Xizmat ko‘rsatishni tashkil etilishining pog‘onali – ierarxik shakli. Aholiga xizmat ko‘rsatishni pog‘onali tashkil etilishi va uning nazariy asoslari. Bu boradagi turli ilmiy ishlanmalar. Xizmat ko‘rsatishni pogonali hududiy tashkil etish buyicha g‘arb olimlarining tajribasi. V.Kristaller va A.Lyoshlar tomonidan «markaziy joylar» nazariyasining yaratilishi. Markaziy joylar nazariyasining maqsad va mohiyati, ilmiy-nazariy ahamiyati. Aholiga xizmat ko‘rsatish markazlari. Xizmat ko‘rsatish markazlari – xizmat ko‘rsatish soxalarini hududiy tashkil etishni tadqiq etishning muxim boskichi ekanligi. Xizmat ko‘rsatish markazlarining moxiyati, tuzilishi va shakllanishi xususiyatlari. Ularning o‘zaroaloqadorligi va bo‘ysunuvchanligi. Aholiga xizmat ko‘rsatishni hududiy tashkil etilishi joyning tabiiy-geografik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshka omillari bilan boglikligi. Xizmat ko‘rsatish tizimini shaxar joylarda tashkil etishning uziga xos xususiyatlari. Xizmat ko‘rsatish tizimini shaxar joylarda tashkil etish avvalo, shaxarning katta-kichikligi, turli kurilish inshootlarining konfiguratsiyasi, zichligi, balandligi, yirik korxonalarining joylashuviga boglikligi. Xizmat ko‘rsatish muassasalarini shahar hududida tanlab joylashuv xususiyati. Qishloq joylarda aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini hududiy tashkil etish aholi joylashuviga, uning demografik rivojlanishiga, qishloqlar soni, katta-kichikligi va zichligiga, yirik shaharlar (xizmat ko‘rsatish markazlari)ga yaqin joylashuvi, qishloqlararo transport turini rivojlanganligiga bog‘liq ekanligi. Qishloq joylarda aholiga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish muammolari.

## **MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI**

**fani bo‘yicha:**

Dunyo mintaqalarining hozirgi zamон siyosiy xaritasi. Siyosiy xaritaning rivojlanish bosqichlari. Jahon mamlakatlarining turlari va guruhlarga bo‘linishi. Jahon mamlakatlarining davlat tuzumlari. Rivojlangan mamlakatlar. Ularning jahon taraqqiyotidagi ahamiyati. Rivojlanayotgan mamlakatlar. YAngi industrial mintaqalar.Tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi. Mineral resurslar. Ularning xududlar bo‘yicha taqsimlanishi. Er resurslari. Er fondi va uning tuzilishi. Suv resurslari. Jahon xo‘jaligining rivojlanishida mineral resurslarning ahamiyati. YOqilg‘i resurslari. Noananaviy resurslar. Biologik resurslar. Dunyo okeani resurslari. Rekreatsion va turistik resurslar, ularning turlari va mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi. Aholining soni va dinamikasi. Aholining jinsiy va yosh tarkibi.. Diniy tarkibi. Mehnat resurslari.Mehnat resurslaridan foydalanishning hududiy xususiyati. Xalqaro ishchi kuchi

migratsiyasining mohiyati va sabablari. «Aqlning oqib o‘tishi» muammosi. Aholi joylashuvi va urbanizatsiya jarayoni. Aglomeratsiya, megapolis. Mintaqalar Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi, qonuniyatlar. Mintaqalar Xalqaro mehnat taqsimotiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar. Mintaqalar Xalqaro mehnat taqsimotida transmilliy korporatsiyalarning o‘rni. Jahon mintaqalari ho‘jaligi rivojlanishining hozirgi kundagi xususiyati. Jahon xo‘jaligining globallashuvi jarayonida mamlakatlar va mamlakatlar guruhi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va ziddiyatlar. Asosiy tarmoqlari. Sanoatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Fan-teknika inqilobining sanoat rivojlanishi va joylashuvidagi ahamiyati. Mintaqalar FTIning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, intensiv va ekstensiv qishloq xo‘jaligi. Dehqonchilik: donli ekinlar, texnika ekinlari, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik. CHorvachilik. Qoramolchilik rivojlangan mintaqalar va davlatlar. Qo‘ychilik. CHo‘chqachilik. Pillachilik. Quruqlik transporti, suv transporti, havo transporti Asosiy transport yo‘llari. YUK va yo‘lovchi tashish hamda xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirishda transportning o‘rni. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi. Xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar, Xalqaro integratsion birlashmalarning turlari. Xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning rivojlanish bosqichlari. Xorijiy investitsiya eksporterlari va importyorlari. Erkin iqtisodiy zonalar va ularning jahon xo‘jaligini rivojlanishida tutgan o‘rni. Mustaqil O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. Evropa siyosiy xaritasi, uning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Subregionlari. Yirik davlatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. SHarqiy Evropaning o‘tish iqtisodiyoti davlatlari. Tabiiy, mineral xomashyo, demografik, geosiyosiy, transport-kommunikatsiya va ishlab chiqarish salohiyati. Ukraina. Moldaviya. Belorussiya mamlakatlari. Rossiyaga iqtisodiy geografik tavsif. O‘zbekistonga qo‘shti MDH tarkibidagi mamlakatlar: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston. Janubiy Kavkaz davlatlari (Zakavkazya). Janubiy-sharqi Osiyo davlatlari. Osioning yangi industrial mamlakatlari. Janubiy Osiyo. SHimoliy Amerika davlatlari, Janubiy Amerika davlatlari, Afrika davlatlari, SHimoliy Afrika davlatlari. Tropik Afrika davlatlari. Janubiy Afrika davlatlari Avstraliya va Okeaniya mintaqalari makroiqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari.

## **TIBBIYOT GEOGRAFIYASI** **fani bo‘yicha:**

Tibbiyot geografiyasi fani predmeti va vazifalari Tibbiyot geografiyasi fanining maqsadi, vazifalari. Fanning tadqiqot ob’ekti va predmeti. Fanning gidrometeorologiya tizimidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, mutaxassis tayyorlashda tutgan o‘rni Tibbiyot geografiyasi fanining rivojlanish tarixi Tibbiyot geografiyasi fanining vujudga kelish shart-sharoitlari. Tibbiyot geografiyasining rivojlanishida rus olimlari O.X.Zabolotniy, E.N.Povlovskiy, A.A.SHoshin, A.V.CHaklin, A.G.Avsin, I.G.SHevelov va boshqalarning qo‘shtan hissalari. Xorijiy davlatlarda tibbiyot geografiyasining rivojlanishiga Girsh, Finke, Fuks, Boje, Gorne kabi olimlarning qo‘shtan hissalari. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda tibbiyot geografiyasining rivojlanishiga Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, V.A.Akobyan, A.X.YUsupov, A.A.Sobirov, SH.N.Muxiddinov, M.I.Nazarov, A.S.Soleev, N.Q.Komilova va boshqalarning tutgan o‘rni. Tibbiyot geografiyasining tadqiqot usullari Tibbiy geografik tadqiqotlarni tashkil etish. Tibbiy geografik tadqiqotlarni asosiy usullari. Tibbiy geografik tavsif uslubi, tibbiy geografik tadqiqotlarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘rni o‘rni Tibbiyot geografiyasida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar tushunchasi. Tabiiy omillarni tibbiy geografik baholashning tamoyil va usullari. Tabiiy geografik omillarning ayrim elementlari, iqlim, ichki suvlari, relef, hayvonot dunyosi, o‘simlik qoplami, tuproqlarning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni baholashning tamoyil va usullari. Aholisi, sanoati va qishloq xo‘jaligi, transport aloqalari. Tibbiy sanitariya sharoiti, aholini kasallikka chalinganligi. Sog‘liqni saqlashni tashkil etish. Mahalliy tibbiy va veterinariya muassasalari. Alovida olingan hududlarni tibbiy geografik tavsifiga

bag‘ishlangan ishlarni vujudga kelishi. O‘zbekiston hudududini tibbiy geografik o‘rganish. Geografik rayonlarni tibbiy geografik o‘rganish uslublari. Ma’lum bir hududlarni tibbiy geografik o‘rganishni tashkil etish va tekshirish uslublari. Nozogeografiya va uning asosiy vazifalari, nozogeografik vaziyatning hududiy xususiyatlari, nozogeografiya va uning mohiyati. Nozogeografiyaning vazifalari. Nozogeografiyaning umumiyligi holati va asosiy tushunchalari. Nozokompleks va nozoreallarning vujudga kelishida tashqi omillarning ahamiyati. Tabiiy omillar. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Nozokompleks va nozoreallarni o‘rganish usullari. Nozogeografik vaziyatning hududiy xususiyatlari. O‘zbekiston respublikasi aholi kasallanishi geografiyasi. O‘rta Zarafshon tabiiy sharoitini nozogeografik baholash. Vodiyligining salomatligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar. O‘rta Zarafshon vodiysini Tibbiyot geografiyasi tibbiy-geografik rayonlashtirish. Tibbiy geografik kartalashtirish, uning mohiyati, vazifalari va usullari. Tibbiy geografik tadqiqotlarda geografik haritalarning ahamiyati. Tibbiy geografik haritalar ularnig ahamiyati va tasnifi. Obzor tibbiy geografik haritalar. Tahliliy tibbiy geografik haritalar. Nozogeografik haritalar. Ularning masshtabi. Hudidning geografik qamrovi. Tibbiy geografik xatitalarni tuzish va bezash usullari. Tibbiy geografik haritalarni tuzishda bajariladigan ishlar. Belgi usuli. Areallar usuli. Rang berish usuli. Nuqta usuli. Kartogramma va kartodiagramma usullari. Tibbiy geografik kartalarni tuzish usullari

## **HUDUDIY MAJMUALARNING NAZARIY ASOSLARI** **fani bo‘yicha:**

Hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ishlab chiqarish majmualari. Hududiy, geografik, akvatorial mehnat taqsimoti, ularning o‘xshashliklari va farqlari, mohiyati va maqsadi. Hududiy mehnat taqsimotining asosiy omillari va darajalari. Hududiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv. O‘zbekistonda hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish masalalari. Iqtisodiy rayonlashtirish, rayonlararo va halqaro iqtisodiy integratsiya. HICHM, ularning tashkil bo‘lish asoslari va qonuniyatlari, turli tarmoq va sohalardagi hududiy majmualar. N.N.Kolosovskiyning HICHMLar to‘g‘risidagi g‘oyasi. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari. Mujassamlashuv va uning xillari, ijobjiy va salbiy tomonlari, mujassamlashuv va markazlashuv. Ixtisoslashuv va uning turlari. Kooperatsiya va kombinatsiyalashuv. Ishlab chiqarishni tashkil etish ijtimoiy shakllarining sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va sotsial sohalardagi xususiyatlari. Tabiiy omillar, tabiiy sharoit va qazilma boyliklarning HICHMga ta’siri. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholi va mehnat resurslari, transport va boshqa infrastruktura turlarining ahamiyati. HICHM va ekologiya. Ishlab chiqarishini joylashtirishning klassik g‘oyalari. I.Tyunenning qishloq xo‘jaligini joylashtirish modeli, “Tyunen halqalari”. A.Veberning sanoat shtandorti, V. Kristaller va A. Lyosh, V. Leontev, U. Ayzard, T. Xagerstrand, F. Perru va boshqalarning ishlab chiqarishni joylashtirshga oid fikrlari. Iqtisodiy geografiyada tarmoqlar tarkibi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari. Ishlab chiqarish tarmoqlari. Noishlab chiqarish tarmoqlari. Sanoat. qishloq xo‘jaligi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning asosiy shakllari. Mujassamlashuv. Ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida mujassamlashuvning asosiy xususiyatlari. Chiziqsimon, areal va chiziqsimonareal mujassamlashuv: Ishlab chiqarish va hududiy ishlab chiqarish jixatlari. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va ijtimoiy sohalarda ishlab chiqarish shakllarini tashkil etishning umumiyligi jixatlari.

HICHM va iqtisodiy rayonlashtirish. Rayon hosil qiluvchi etakchi omil. Iqtisodiy rayon. HICHM rayoni va uni hosil qilishdagi maqsadli dasturlari loyihasi. Sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil qilish va sanoat HMLari. Sanoat tarmoqlari xaqida tushuncha, ularning hozirgi zamon rivojlanishi. Sanoat tugunlari va markazlari. Energiya ishlab chiqarish, N.N.Kolosovskiy g‘oyasi bo‘yicha energiya ishlab chiqarish sikllarini aniqlash. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish, hududiy agrosanoat majmualari. Qishloq xo‘jaligida erdan foydalanish, agroqlimiy sharoitlar. Harorat, suv va havoning agrosohadagi ahamiyati, qishloq xo‘jaligi infrastrukturasi, transport,

fan-texnika taraqqiyotining dexqonchilik va chovachilikni joylashtirishga ta'siri. SHahar atrofi qishloq xo'jaligi. Agrosanoat majmualari. Transportni joylashtirish va transport tugunlari. Transportning ikki muhim funksiyasi: transport xalq xo'jaligi tarmog'i va ishlab chiqarishning joylashtirish omili (transport infrastrukturasi). Transport turlari va ularni joylashtirish. Transport tugunlari. Erkin iqtisodiy mintaqalar shakllanishida transportning ahamiyati. Transport va HICHMLar.

Servis sohasining turlari. Aholiga madaniy-maishiy, tibbiy, ta'lim, savdo, moliya xizmatlarini ko'rsatish va ularning hududiy tashkil qilinishi. V.Kristallerning "markaziy o'rinalar" g'oyasi. Noishlab chiqarish sohalarida hududiy majmualar. Markaziy Osiyoda HMning shakllanish hususiyatlari. Mintaqadagi gidrografik to'rda aholi joylashuvi va xo'jalik tizimining o'zaro aloqadorligi. Ortiqcha mehnat resurslari. Tog' kon sanoatida HICHMning tutgan o'rni. Hududiy majmualar va urbanizatsiya. SHaharlar to'ri, tarkibi va tizimining shaklanishiga HMning ta'siri. SHahar aglomeratsiyasi, ularning sanoat tuguni, hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan aloqasi. Hududiy majmualarning ijtimoiy va sayyoqlik turlari. Hududiy majmualarning turlari. Agroishlab chiqarish va transport HMLari.

## AHOLI GEOGRAFIYASI DEMOGRAFIYA ASOSLARI BILAN

### fani bo'yicha:

Fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tadqiqot usullari, aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari. Uning fanlar tizimidagi o'rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining muammolar. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fani xorijda va O'zbekistonda tadqiq etish. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari. Aholi ro'yxati va joriy hisobi, Demografik ma'lumotlar manbalari xaqida umumiylaysihsiz. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jarayonlarining joriy hisobi. Aholi ro'yxati. Maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, aholini joriy hisobga olish. Aholi harakatining joriy hisobi. Aholi yo'qlovi va registrlar. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan hududlarda aholi sonini ro'yxatga olish.

Dunyo aholisi soni dinamikasi va joylanishi xususiyatlari. Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o'zgarishlari). Aholi ko'payishi tarixiy bosqichlari. Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni ajratish, guruhash. Aholi soni dinamikasi, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish va ko'payish sur'atlari. Aholining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar. Aholining yosh - jins tarkibi, mehnat resurslari va demografik siyosat. Aholining yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari. "Bandlik", "mehnat resurslari", "iqtisodiy faol aholi" tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnatda band aholi. Demografik siyosat o'tkazish metodlari. Dunyo mintaqalari aholisi tabiiy harakati va ularning hududiy xususiyatlari. Dunyo aholisi tabiiy harakati hududiy xususiyatlari. Aholi takror barpo bo'lishi, demografik o'tish nazariyasi, aholi takror barpo bo'lishining asosiy jarayonlari, ya'ni tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va qisman migratsiya. Aholi o'limi, o'rtacha umr ko'rish uzunligi. Dunyoda tug'ilish samaradorligi va dinamikasi. Tug'ilishning umumiylaysihsiz, xususiy va yosh bo'yicha koefitsientlari, nikohsiz va nikohdagi tug'ilish. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Dunyo mamlakatlarida tug'ilish samaradorligi. Tug'ilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va ularni o'rganish metodlari. Tug'ilish darajasi bo'yicha er shari mintaqalarining guruhanishi. Aholi migratsiyasi, uning turlari va yo'naliishlari. Migratsiya haqida tushuncha. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyorli, majburiy doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mokkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. Dunyo aholisi mexanik harakati muammolarini va siyosat. Immigratsiya siyosati.

SHahar va qishloq aholisi. Juhon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi. SHaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizatsining «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizatsiya,

rurbanizatsiya jarayonlari. Urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, oykumenopolislar. Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va punktlari haqida umumiy tushuncha. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi. Til oilalarining geografik tarqalishi. Xalqlarning tili bo'yicha guruhlanishi. Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.

## **JAHON MAMLAKATLARI IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI**

### **fani bo'yicha:**

Dunyoning hozirgi zamon siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining sotsial-iqtisodiy guruhlari. Dunyoning siyosiy xaritasi va uning shakllanish xususiyatlari. Jhon mamlakatlarining, hududi va aholi soni. Mamlakatlarning davlat tuzumi. YAIM bo'yicha mamlakatlar tavsifi. Davlatlarning tiplari. O'tish iqtisodiyoti, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar. Anklav va eksklav mamlakatlar. Jhon tabiiy resurslari geografiyasi. Ekologik muammolar. Jhon tabiiy resurslarining turlari. Agroqlim resurslari. Er-suv resurslari. Gidroenergetika resurslari. Foydali qazilmalar geografiyasi. Dunyo okeani resurslari. Tabiat-jamiyatning o'zaro ta'siri va uning oqibatlari. Jhon va uning mintaqalarida geoekologik muammolar. Jhon aholisi soni va o'sishi. Aholi joylashuvi va uning mintaqaviy xususiyatlari. Aholi takror barpo bo'lishi. «Demografik portlash» va uning oqibatlari. Dunyo mintaqalarida demografik o'tish davrining xususiyatlari. Dunyoning turli mintaqalari demografik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. BMTning demografik prognozi. Zamonaviy xalqaro migratsiya va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Mehnat resurslari, ishsizlik muammosi va ularning regional xususiyatlari. Urbanizatsiya va unga ta'sir etuvchi omillar. SHahar va qishloq aholisi. Jhon urbanizatsiyasining mintaqaviy xususiyatlari. Suburbanizatsiya. Dunyoviy shaharlar, yirik aglomeratsiyalar, megalopolislar. Poytaxt shaharlar va ularning iqtisodiy salohiyati. Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta'sir etuvchi omillar. Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi. Hududiy mehnat taqsimoti. Xalqaro va rayonlararo mehnat taqsimoti. Adam Smitning mutlaq afzallik nazariyasi. David Rikardonning nisbiy (qiyosiy) afzallik qonuni. Xalqaro mehnat taqsimoti va jhon xo'jaligining shakllanishi. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning omillari.

Jhon xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi. Jhon xo'jaligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Evropa mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi. Manufakturaning yuzaga kelishi. Buyuk geografik kashfiyotlar. Eng muhim texnik kashfiyotlar. Evropa va SHimoliy Amerika mamlakatlaridagi sanoat inqilobining dunyo mintaqalari iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Mustamlaka tuzumi. Hozirgi zamon rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotining yuqori sur'atda o'sishiga ta'sir etuvchi omillar. Sanoatni hududiy tashkil etish omillari. Xomashyo, energetika, mehnat resurslari, transport va ekologik omillar. Jhon sanoatining tarmoqlar tarkibi. YOqilg'i sanoati va uning tarmoqlari. Ko'mir sanoati geografiyasi. Jhon neft zahiralari va geografiyasi. Jhon qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi. Dehqonchilik:donli ekinlar, texnika ekinlari, moyli ekinlar, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik. CHorvachilik. Qoramolchilik. CHo'chqachilik. Qo'ychilik. Parrandachilik va boshqalar. Intensiv va ekstensiv qishloq xo'jaligi. Global oziq-ovqat muammosi. Jhon transporti. Jhon transportining yuk tashish tarkibi. Dengiz transporti. Global mashuv jarayonlari va unda transportning ahamiyati. O'zbekiston transporti. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Integratsiya va global mashuv jarayonlari. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning turlari. Erkin iqtisodiy zonalar. Integratsion birlashmalarda O'zbekistonning ishtiroki. Transmilliy kompaniyalar geografiyasi. Dunyoning yirik iqtisodiy-ijtimoiy va geosiyosiy mintaqalari.

## **O'RTA OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI**

### **fani bo'yicha:**

Dunyo siyosiy va iqtisodiy tizimida O'rta Osiyo davlatlarining tutgan o'rni. O'rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning ajralmas tarmog'i ekanligi.

O‘rtal Osiyo va Markaziy Osiyo atamalari. O‘rtal Osiyo mintaqasi davlatlarining shakllanish tarixi, tabiiy, iqtisodiy geografik o‘rni, chegaralari. O‘rtal Osiyo davlatlarining geosiyosi va geostrategik holati. O‘rtal Osiyo davlatlarining siyosiy geografik o‘rni va uning mintaqasi rivojlanishiga ta’siri. 1990-yillardagi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar. O‘rtal Osiyo davlatlarining bozor munosabatlariga o‘tishi. Zamonaiviy rivojlanishi, o‘zaro munosabatlar va muammolar. O‘rtal Osiyoning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy geografik baho berish. O‘rtal Osiyo davlatlari tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining xilma xilligi, ularga mos holda turlicha xo‘jalik faoliyati turlarining shakllanishi. Mintaqaning demografik salohiyati, uning tarkib topish tarixi, aholining tabiiy ko‘payishi, diniy, jinsiy, yosh tarkibi. Milliy tarkibi, uning tarixiy davrlarda o‘zgarishi. Aholi migratsiyasi, uning sabab va oqibatlari. O‘rtal Osiyoda mehnat resurslari, aholining iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi. Demografik muammolarni kelib chiqish sabablari, ularni hal etishga davlatlarning e’tibori, olib borilayotgan chora-tadbirlar va islohotlar haqida ma’lumot.

Xo‘jaligining umumiy ta’rifi. Tashqi iqtisodiy aloqalar. Ularning asosiy yo‘nalishlari. YAqin va Uzoq, xorij davlatlari bilan O‘rtal Osiyo davlatlarining olib borayotgan iqtisodiy aloqalar, eksport va import mahsulotlari, O‘zbekistonning qo‘shti davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar tarkibi, asosiy muammolari. Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston Qirg‘iziston Respublikalarining tarkib topish tarixi. Geografik o‘rnining ijobjiy va salbiy jihatlari, tabiiy sharoiti, tabiiy resurs salohiyati-agroqlim, suv, rekreatsiya resurslari. Qishloq xo‘jaligi. CHorvachilik, dehqonchilik, uning hududiy va tarmoqlar tarkibi. G‘allachilik va paxtachilikning rivojlanishi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalar.

## **O‘ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI**

### **fani bo‘yicha:**

O‘zbekistonning jaxon siyosiy xaritasidagi o‘rni, ma’muriy-hududiy bo‘linishi. O‘zbekiston Respublikasining geografik va siyosiy geografik o‘rni, maydoni va chegaralari. Uning mamlakatni tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liqligi. O‘zbekiston Respublikasining makrogeografik, mezogeografik va mikrogeografik tutgan o‘rni va roli. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xo‘jalik ahamiyati, O‘zbekistonning er yuzasi tuzilishi va mineral resurs salohiyati. Iqlimi va suvlari. Agroqlim resurslari va ularning xo‘jalik ahamiyati. Kanallar va suv omborlari, ulardan foydalanishning hozirgi ahvoli. Er fondi va uning tarkibiy tuzilishi. O‘zbekistonning hayvonot va o‘simglik dunyosi, ularning xo‘jalik ahamiyati.

O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari, mehnat bozori. Aholi soni va uning tadrijiy o‘zgarishlari. Mamlakat aholisining joylashuv xususiyatlari. Aholi sonining o‘sishi va joylashuviga ta’sir qiluvchi omillar. Respublika aholisining tabiiy va mexanik xarakati, ularning mintaqaviy xususiyatlari. Aholining jins-yosh, milliy va ijtimoiy tarkibi. SHahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya va uning regional xususiyatlari. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Mehnat bozori va uning hududiy jihatlari. O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligining umumiy tafsifi. Milliy iqtisodiyotning shakllanishi xususiyatlari. Erkin iqtisodiy zonalar. Elektr energiya ishlab chiqarishning tadrijiy o‘zgarishlari. Sanoat markazlari, sanoat tugunlari, sanoat rayonlari. Muqobil energiya resurslaridan foydalanish masalalari. Energiya ishlab chiqarish sikllari. O‘zbekiston metallurgiya majmuasi va uning tuzilishi. Qora va rangdor metallurgiya sanoati. Ularning korxonalarini joylashuvi xususiyatlari, xomashyo bazasi, mahsulot ishlab chiqarish. Metallurgiya sanoati geografiyasi.

O‘zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanishi. Uning tarmoqlar tarkibi. Kimyo, neft kimyosi, mineral o‘g‘itlar, sintetik tola ishlab chiqarish, kimyo-farmatsevtika, lok-bo‘yoq va boshqa tarmoqlar, ularning joylanishi. Kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish va uning hududiy tuzilishi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati. Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Uning tarkibiy tuzilishi. Transport, traktor va qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, stanoksozlik, asbobsozlik, elektrotexnika mashinasozligi. Mustaqillik davrida mashinasozlikning rivojlanishi. Avtomobilsozlik va uning geografiyasi.

Mashinasozlik majmuasida mahsulot ishlab chiqarishning tarmoqlar va hududiy xususiyatlari. Qurilish materiallari, Qurilish materiallari ishlab chiqarishning tadrijiy va hududiy tarkibi. O‘rmon, yog‘ochni qayta ishslash va sellyuloza-qog‘oz sanoati rivojlanishining imkoniyatlari. O‘zbekistonda engil va oziq-ovqat sanoati shakllanishi va rivojlanishining omillari. Tarmoqlar tarkibi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga umumiy tavsif. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari haqida tushuncha. Dehqonchilik. CHorvachilik va uning ixtisoslashuvi. Respublika agrosanoat majmuasi. Mustaqillik yillarida agrar islohotlar. Qishloq xo‘jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga kelishi. Fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi. O‘zbekiston er-suv resurslaridan foydalanish. Yangi erlarning o‘zlashtirilishi. Irrigatsiya va melioratsiya.

Dehqonchilikning qishloq xo‘jaligi va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Tarmoqlar tarkibi va rivojlanishi xususiyatlari. Texnika ekinlari (paxta, tamaki, kanof), g‘allachilik, bog‘dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik, moyli ekinlar va em-hashak ekinlari etishtirish. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va mahsulot etishtirishning mintaqaviy xususiyatlari. CHorvachilikning respublika xo‘jaligidagi ahamiyati. CHorvachilik tarmoqlarining joylashuviga ta’sir etuvchi omillar. CHorvachilikni tarmoqlar tarkibi. Qoramolchilik, qo‘ychilik va echkichilik, qorako‘lchilik, parrandachilik, cho‘chqachilik, baliqchilik, pillachilik va boshqa tarmoqlar. CHorvachilik rayonlari. Ijtimoiy soxalarning tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari. O‘zbekiston ta’lim tizimi. Sog‘liqni saqlash tizimi va uning rivojlanishi. Aholiga xizmat ko‘rsatish. Maishiy, madaniy va boshqa xizmatlar. Rekreatsiya resurslari va rekreatsiya geografiyasi. O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi, turizm geografiyasi. O‘zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi. O‘zbekistonda milliy transport tizimining tarixiy tarkib topishi va rivojlanishi. Transportning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. Transportda yuk va yo‘lovchi tashish geografiyasi. O‘zbekistonning savdo-iqtisodiy aloqalarida transportning roli. Respublikaning transport majmuasi. Transportning turlari. Temir yo‘l, avtomobil, quvur, havo, daryo transporti. Mustaqillik yillarida mamlakat transportining rivojlanishi, O‘zbekistonning xalqaro savdo tizimlariga chiqish imkoniyatlari. O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligining hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlari. Iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy va amaliy ahamiyati, uning respublika xo‘jaligini rivojlantirish rejalar bilan bog‘liqligi. Iqtisodiy rayon hosil qiluvchi omillar. Rayonning tabiiy-resurs salohiyati. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiy rayon va viloyatlar xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Maxsus industrial zonalar. O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari. Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon, Janubiy, Mirzacho‘l, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari va ularning tarkibiy qismlarining tavsifi.

## SOTSIAL VA MADANIY GEOGRAFIYA

### fani bo‘yicha:

. Fanning ob‘ekti, predmeti va tuzilishi. Uning bevosita inson, aholi bilan bog‘liqligi. Uning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Sotsial geografiyaning keng va tor ma’noda tushunish. Sotsial geografiyaning tuzilishi. Sotsial geografiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Sotsial geografiya va iqtisodiy geografiya, sotsial geografiya va aholi geografiyasi, sotsial geografiya va sotsiologiya. Aholi va uning ijtimoiy tuzilishi. Etnogeografiya va madaniyat. Din geografiyasi. Tibbiyot aholini ijtimoiy rivojlanishining muhim jabxasi ekanligi. Tibbiyot geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni. Tadqiqot ob‘ekti va predmeti. Tibbiyot geografiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Zamonaviy tuzilishi. Aholi salomatligi geografiyasi. Nozogeografiya. Sog‘liqni saqlash tizimi geografiyasi. Tibbiy-geografik rayonlar. Aholining tibbiy xizmatga bo‘lgan extiyojlari, uning turlari. Tibbiy xizmat ko‘rsatishning hududiy tashkil etilishi. Ta’lim tizimi - ijtimoiy geografik tadqiqotlarning muhim ob‘ekti ekanligi. Zamonaviy ta’lim tizimi va uni geografik jihatdan o‘rganishning ahamiyati. Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. Jinoyatchilik geografiyasi. Jinoyatchilikning hududiy tarkibi – geografik tadqiqotlarning ob‘ekti sifatida. Krimenogen vaziyat va uni xaritada aks ettirish. Jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Xulq-atvor geografiyasi. Bixevoiristik geografiya va uning shakllanishi. Muhit, muhitni tarzi va xulq-atvor. SHahar turmush tarzi. Kundalik xulq-atvor. Migrantlar xulq-atvori. Favqulodda xolatlarda aholining xulq-atvori. Turmush tarzi va uning geografik jihatlari.

## **SIYOSIY GEOGRAFIYA VA TASHKI IKTISODIY ALOKALAR**

### **fani bo‘yicha:**

Siyosiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni, tadqiqot ob’ekti va predmeti. Siyosiy geografiyaning tadqiqot ob’ekti va predmeti. Zamonaviy siyosiy – geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari. Elektoral geografiya (saylovlar geografiyasi). Siyosiy geografiya va geosiyosatning asosiy tushuncha va kategoriyalari. Davlat haqida tushuncha. Davlat hududi. Davlat chegarasi. Davlat chegarasining funksiyalari. Hududiy suvlar. Siyosiy-geografik o‘rin. Makro-, mezo- va mikro siyosiy-geografik o‘rin. Anklav. Eksklav. Dunyo oroli. Xartlend. Ichki yarim oy (Rimlend). Tashqi yarim oy. Geosiyosiy dualizm. Talassokratiya. Tellurokratiya. Sivilizatsiyalar konsepsiysi va siyosiy geografiya.

Dunyo siyosiy xaritasining mohiyati va mazmuni. Dunyo siyosiy xaritasida davlatlarning soni, joylashuvi, katta-kichikligi, chegaralari, boshquruv shakli, davlat qurilishi, siyosiy geografik o‘zgarishlari, mavjud xududiy muammo va boshqalarning aks etishi. Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasidagi jarayonlar va ularning geosiyosiy jihatlari. Turli xil geosiyosiy va geoiqitsodiy tuzilmalar. Dunyo siyosiy xaritasidagi muammoli «nuqta» yoki mintaqalar geografiyasi. Siyosiy geografiya va geosiyosatning ilk tarixiy kurtaklari. Qadimgi greklarning geografik muhitning insonga ta’siri haqidagi fikrlari. Aristotel. Ibn Xaldun. De Monteske. Immanuil Kant. Karl Klauzevits. Karl Ritter. Aleksandr Gumboldt. Lev Ilich Mechnikov. Elize Reklyu va boshqalar. Klassik geosiyosiy konsepsiylar. Nemis klassik geosiyosat maktabi. Fridrix Ratsel va uning qarashlari. Geografik determinizm konsepsiyasining geosiyosatga ta’siri. Davlatga er bilan o‘zaro bog‘langan tirik organizm sifatidagi qarashlari. YUXAN Rudolf CHellen. Karl Xausxofer. Vidal de la Blash va fransuz maktabi. Siyosiy geografiyada possibilizm konsepsiysi. Ingliz-amerika klassik geosiyosati. Alfred Tayer Mexen. Xelford Makkinder. Nikolas Spaykmen va b. Siyosiy geografiya va geosiyosatdagi zamonaviy konsepsiylar. Atlantizm va neoatlantizm. Mondializm. Frensis Fukuyamaning geosiyosiy qarashlari. Geograf Saul Koenning geosiyosiy qarashlari. Geosiyosiy mintaqalar. Immanuil Vallerstaynning jahon tizimlari konsepsiysi. Piter Teylarning geosiyosiy monotsentrizm nazariyasi. MDH davlatlarida geosiyosiy g‘oyalar. Globalizatsiya va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya

Globalizatsiya va mintaqalashtirish jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi. Integratsion birlashmalar va geosiyosiy manfaatlar. Hozirgi xalqaro aholi migratsiyasi va uning globalizatsiya jarayonlariga ta’siri. O‘zbekistonning geosiyosiy salohiyati va imkoniyatlari. Dunyo siyosiy xaritasida O‘zbekiston Respublikasining tutgan o‘rni. Mamlakatning tabiiy-resurs, demografik, iqtisodiy salohiyati va uning geosiyosiy ahamiyati. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o‘rni va roli. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, MDH va jahon mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlari va ularning geosiyosiy jihatlari. Prezident asarlarida siyosiy-geografik (geosiyosiy) masalalarning yoritilishi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari.

## **SHAHARLAR GEOGRAFIYASI**

### **fani bo‘yicha:**

Fanning ob’ekti va predmeti, tadqiqot usullari. Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar. Shaharlar klassifikatsiyasi. Shaharlarning funksiyalari. Shaharlarning hududiy tizimlari. Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari. Rayon planirovkasi va shaharlarning bosh rejasi. Respublikada shaharlarni hududiy tashkil etish, takomillashtirish va shahar qurilishi masalalari. Yirik shaharlarning planlari.

## **TURIZM GEOGRAFIYASI**

### **fani bo‘yicha:**

Turizm geografiyasining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari. Turizmni rivojlantirish omillari. Turizm geografiyasining tarixi va rivojlanishi, klassifikatsiyasi. Jahonning turistik regionlari. O‘zbekiston turistik rayonlari va xalqaro turizmning rivojlanish yo‘nalishlari.

Evropada geografiya fani taraqqiyoti, Nemis olimlari, Angliya, Amerika, Yaponiya,

Fransiya maktabalarida geografiya fani va qarashlar. Rus geografiya fani darg‘alari va geografiya jamiyati. O‘zbekistonda geografiya fanining rivojlanishi, Z.M.Akramov, A.Soliev, A.Abdulqosimov, A.Qayumov, O.Atta Mirzaev, A.Ruziev va boshqa olimlar ilmiy maktablari.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси, Тошкент, 2021
2. Ш.М.Мирзиёев “Буюқ келагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”.- Тошкент: - “Ўзбекистон”, 2017 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
4. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно- терминологический словарь. - М., 1980.
5. Асанов Г.Р. Социал-иктисодий география: термин ва тушунчалар изоҳли луғати. – Т., 1990.
6. Анна Баттимер Путь в географии. –М.: Прогресс, 1990
7. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.
8. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: «Фан ва технология», 2014.-368 б.
9. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иқтисодий география. Ўкув қўлланма. – Т.: «ИҚТИСОД-МОЛИЯ», - 2013. 212 бет.
10. Абдураҳмонов Қ.Х., Абдуманов Х.Х. Демография. Ўкув қолланма. - Т.: Ношир нашриёти. – 2011.
11. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
12. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т., 2002.
13. Баранский Н.Н.Научные принципы географии.Избр.труды.–М., 1980.
14. Болтаев М. Марказий Осиё давлатлари иқтисодий ва ижтимоий географияси. (Ўкув қўлланма). –Т., 2003.
15. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси демография асослари билан. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
16. Джонсон Р.Дж. География и географы. –Л., 1989.
17. Жекулин В.С. Введение в географию. -Л.: ЛГУ, 1989.
18. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.
19. Назаров М., Тожиева З. Ижтимоий география. -Т., «Университет», 2003.
20. Воронов А.Г.Медицинская география.М.Наука.1989.
21. Комилова Н.Қ. Солиев А.С. Тиббиёт географияси.Т.Истиқлол.2005.
22. Комилова Н.Қ. Равшанов А. Тиббиёт географияси ва глобал саломатлик. - Тошкент,2019
23. Шошин А.А. Основы медицинской географии.М-Л.Изд.Академии наук. 1962. Чаклин А.В. Медицинская география. М. Знание. 1977.
24. Родионова, И. А.Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1,2 : учебник для бакалавров. 2-е изд., испр. и доп. - М., 2015.-431 с.
25. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методлар ва амалиёт. – Т.: Камалак, 2013.
26. Солиев А.С., Маҳамадалиев Р. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари. – Т., 2005 .
27. Саушкин Ю.Г., Введение в экономическую географию. - М., 1970.
28. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси // Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси.- Т.: Университет. 2014.
29. Солиев А.С., Усманов М.Р. Туризм географияси.-Самарканд, 2005

30. Социально-экономическая география: понятие и термины. – Смоленск: Ойкумена, 2013.
31. Скопин А.Ю. Введение в экономическую географию. – М.: Владос, 2001.
32. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Фан ва технология», 2010. – 276 б.
33. Тожиева З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000.-58 б.
34. Тожиева З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. – Т., 2002.-160 б.
35. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. Под. Ред. И.А.Родионовой. М.:Экон.-Информ., 2008.
36. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. –М., 2004.
37. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья –М., 2004. (Ратанова М таҳрири остида).
38. Қаюмов А., Пардаев F, Исломов И. Иқтисодий ва ижтимоий география. (Ўрта Осиё иқтисодий ва ижтимоий географияси. Ўқув қўлланма). -Т., 2007.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA  
IXTISOSLIKLARIKA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS FANLARDAN  
DA'VOGARLARNING BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

<b>Sinov topshirish shakli</b>	Yozma
<b>Ajratilgan vaqt</b>	120 daqqaq
<b>Savollar soni</b>	5
<b>Har bir savol uchun belgilangan ball</b>	20
<b>Maksimal ball</b>	100
<b>O'tish bali</b>	55